



1913-yil aprel oyidan chiqib boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 4-yanvar, shanba,
1 (24.027)-son

O'zbek xalq
maqoli

Tuqqan
yerda
tug'ing
tik

Zarafshon



www.zarnews.uz https://www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https://twitter.com/zarnews_uz

Xalq deputatlari viloyat Kengashining QARORI

SAMARQAND VILOYATINING 2025-YILGI MAHALLIY BUDJETINI TASDIQLASH TO'G'RISIDA

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budget kodeksining 27, 99-moddalari, O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida" O'RBQ-1011-son Qonuniga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2024-yil 14-oktabrdagi 01-1239/7-sonli va Iqtisodiyot va moliya vazirligining 2024-yil 25-dekabrda 01/51-1-26812-sonli xatlarini inobatga olib, xalq deputatlari viloyat Kengashining yettinchi chaqiriq beshinchi sessiyasi QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasining "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni (keyingi o'rinlarda Qonun deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qonunga muvofiq, Samarqand viloyati mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **5915,3 milliard so'm** va xarajatlari **8008,6 milliard so'm** ekanligi ma'lumot uchun qabul qilinganligi hamda respublika budjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi budjetlararo transferlar **2093,3 milliard so'm** miqdorida, shundan aksiz solig'i tushumlari hisobidan ajratiladigan transferlar **362,3 milliard so'm** miqdorida tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Qonunning 12-moddasiga muvofiq: **soliqning quyidagi turlari tumanlar va shaharlar budjetlariga to'liq hajmda o'tkaziladi:**

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;
- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;
- mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan, jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qaridan foydalanganlik uchun soliq;
- aylanmadan olinadigan soliq;
- yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bundan mustasno);

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i tushumlarining kamida 50 foizi (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar bundan mustasno); davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

Quyidagilar viloyat budjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

- yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar);
- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i (yirik soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliqlar);
- benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i;
- tamaki mahsulotlari (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) uchun aksiz solig'i bo'yicha tushumlar, tegishincha o'tgan moliya yilining 1-iyul holatiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri aholisi sonining respublika aholisi sonidagi ulushiga muvofiq. Bunda, daromadlar bo'yicha prognozning bajarilmagan qismi Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjetiga, viloyatlarning viloyat budjetlariga va Toshkent shahrining shahar budjetiga respublika budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadi, daromadlar bo'yicha prognozning oshirib bajarilgan qismi esa respublika budjeti ixtiyorida qoladi.

(Davomi 2-sahifada) >>>

Harbiy vatanparvarlik oyligi



Harbiy qismda uchrashuvi

UCH AVLOD

Markaziy harbiy okrugga qarashli harbiy qismda Harbiy vatanparvarlik oyligi doirasida "Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat tayanchi, xalqimiz faxri!" shiori ostida uch avlod uchrashuvi o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 33 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni oldidan tashkil etilgan tadbir avvalida Mudofaa vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi Samarqand mintaqaviy bo'linmasi a'zolari, Samarqand shahridagi 54-umumta'lim maktabi, 1-son ixtisoslashtirilgan maxsus litsey-internat o'quvchilari va jamoatchilik vakillari harbiylar hayoti bilan tanishib, harbiy texnik va qurol-aslahalar ko'rgazmasini tomosha qildi. Shundan so'ng harbiy qism ofitser, serjant va askarlari hamda o'quvchi-yoshlar, jamoatchilik kengashi a'zolari va faxriylarning uchrashuvi o'tkazildi.

Mudofaa vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi Samarqand mintaqaviy bo'linmasi raisi o'rinbosari, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo'limi rahbari Toshpo'lat Tugulov, Markaziy Okrug faxriylar kengashi raisi Shodmon Azizov tadbir qatnashchilarini Yangi yil bayrami va Vatan himoyachilari kuni

bilan tabrikladi. Mamlakatimiz Qurolli Kuchlarining salohiyati va harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligini oshirish borasida davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ahamiyati haqida so'z yuritildi.

Keksa avlod vakillari – harbiylar va ijodkorlar, olimlar o'z hayotlari, ish tajribalari haqida gapirib, yoshlarni qiziqtirgan savollarga javob berishdi.

Uchrashuvda Vatan, jasorat va tinchlik madh etilgan she'rlar o'qilib, qo'shiqlar ijro etildi.

"AFROSIYOB" ning

Kattaqo'rg'on bekati tashkil etiladi



Bu davlatimiz rahbarining 2024-yil 29-noyabr kuni qabul qilingan "Samarqand viloyatida investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Samarqand viloyatining tuman (shahar)larini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar dasturi"da ko'zda tutilgan.

Transport vazirligi va "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatiga 2025-yilda "Afrosiyob" poyezdining "Toshkent – Buxoro" yo'nalishida Kattaqo'rg'on punktiga to'xtab o'tishini hamda "Samarqand – Kattaqo'rg'on" elektr

poyezdi yo'nalishlarini tashkil etish vazifalari topshirilgan.

Shuningdek, "Bulung'ur – Samarqand shahri - Juma – Kattaqo'rg'on shahri" yo'nalishida elektr poyezdi qatnovini yo'lga qo'yish belgilangan. Buning uchun zamonaviy poyezd vagonlari olib kelish, oraliq to'xtash temiryo'l bekatlari infratuzilmasini yaxshilash rejalashtirilgan.

2025-YIL 1-YANVARDAN NIMALAR O'ZGARDI?

Istiqlolli loyihalar milliy agentligi litsenzyasi asosida tavakkalchilikka asoslangan o'yinlarni tashkil etish va bukmekerlik faoliyatini amalga oshirishga ruxsat beriladi.

Har bir tuman (shahar)dagi bittadan umumiy turdagi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tajriba-sinov tariqasida inklyuziv ta'lim guruhlari ochiladi.

Tuman va shahar hokimliklariga davlat boshqaruvi organlari va tadbirkorlik subyektlari o'rtasida "doimiy aloqa" tizimini yaratish maqsadida Tadbirkorlar jamoatchilik kengashini tuzish vakolati berildi. Ular ayrim vazirlik va idoralarning bo'limlari rahbarlarini hududiy boshqarmalar bilan kelishgan holda lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod etish, tegishli mas'ullarni rag'batlantirish yoki intizomiy javobgarlikka tortish choralarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlari tomonidan xorijdan jalb qilingan mutaxassislariga O'zbekiston hududida mehnat faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi tasdiqnoma berishda undiriladigan yig'im miqdori BHMning 30 baravaridan (11,2 million so'm) bir baravarigacha (375 ming so'm) kamaytiriladi.

Umumiy ovqatlanish korxonalariga QQSning bir qismi keshbek sifatida qaytariladi. Oyluk aylanmasini naqd pulsiz amalga oshirganlarga esa QQSning 40 foizi to'langan zahoti qaytariladi. QQS to'lashga o'tgan restoran va kafelarning foyda solig'i 2 karraga kamayadi.

Madaniyat va san'at, axborot-kutubxona va muzeylar sohasida faoliyat olib borayotgan xodimlarning ish haqi 20 foizga oshiriladi.

Barcha kreditlarni (shu jumladan, mikrokreditlarni) berishda kreditorlar o'z mijozlarining qarzi yuki 50 foizdan oshmasligini ta'minlashlari shart. Ya'ni, agar qarz oluvchi o'z daromadining 50 foizini kredit to'lash uchun sarflashiga to'g'ri kelsa, banklar kredit berishdan bosh tortadi.

Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 1,5 baravaridan kam bo'lmagan oyluk ish haqi to'langan holda ishga joylashgan Kambag'al oilalar reyestriga kiritilgan oila a'zosi uchun ijtimoiy soliq uch yil davomida 1 foiz stavkada to'lanadi.

Tuman va shahar ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalarida yangi lavozimlar — onkonozorat xonalari uchun akusher-ginekolog shifokor hamda mobil va stasionar mammograflar ishini 2 smenada tashkil etish uchun rentgen-laborantlar shtatlari joriy etiladi. Mammografiya tasvirini o'qish markazi tashkil etiladi. Bachadon bo'yni va ko'krak bezi saratoni skriningiga nodavlat tibbiyot tashkilotlari jalb qilinadi.

Qattiq maishiy, qurilish, suyuq maishiy, tibbiyot, sanoat, xavfli va zaharli chiqindilarni tashish litsenzyalanadigan faoliyat turiga aylanadi.

Mehribonlik uylari va bolalar uylariga kam ta'minlangan oilalarning farzandlarini vaqtinchalik qabul qilish tartibi bekor qilinadi. Bunda "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi doirasida hokim yordamchisi va ijtimoiy xodim tomonidan oilani kambag'allikdan chiqarish bo'yicha choralar ko'riladi.

Xalq deputatlari viloyat Kengashining QARORI

SAMARQAND VILOYATINING 2025-YILGI MAHALLIY BUDJETINI TASDIQLASH TO'G'RSIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Ma'lumot uchun, quyidagi soliqlar Respublika

budgetidan viloyat budgetiga quyidagi ulushlarda: jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tushgan tushumlarining (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan to'laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tashqari) 100 foizi;

foyda solig'idan tushgan tushumlarning (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq, yirik soliq to'lovchilar, O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to'lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to'lanadigan foyda solig'idan tashqari) 100 foizi;

alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) realizatsiyasi uchun aksiz solig'ining 30 foizi o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga qonunchilikda belgilangan miqdordagi taqsimlanadigan quyidagi daromadlar respublika budgeti va viloyat mahalliy budgeti o'rtasida taqsimlanadi:

davlat bojlari;
jarimalar;
yig'imlar;

qonunchilikda davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan viloyat mahalliy budgetlariga o'tkazilishi belgilangan tushumlar hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo'yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar.

Qonunchilikda belgilangan miqdordagi davlat aktivlarini sotishdan mahalliy budgetlarga tushadigan tushumlar tumanlar va shaharlar budgetlari hamda viloyat mahalliy budgeti o'rtasida teng ulushlarda taqsimlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4-apreldagi "Avtomobil yo'llarida inson xavfsizligini ishonchli ta'minlash va o'lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-190-son qaroriga asosan tuman va shaharlar hokimliklariga yo'l hududlaridagi avtomobil yo'llarida yo'l harakati qoidalari buzilishini qayd etuvchi maxsus avtomatlashtirilgan foto va video qayd etish texnika vositalarini o'rnatish huquqi berilishi munosabati bilan mazkur texnik vositalar orqali qayd etilgan qoidabuzarliklar uchun undirilgan jarima summasingin 30 foizi tuman va shaharlar mahalliy budgetiga qoldirilishi ko'rsatib o'tilsin.

Xalq deputatlari viloyat Kengashi: tegishli darajadagi mahalliy budgetlarga ajratiladigan soliqlar va boshqa turdagi daromadlarni (shu jumladan, ushbu moddadan birinchi, ikkinchi va to'rtinchi qismlarida ko'rsatilgan daromadlarni) hamda budgetlararo transfertlarni taqsimlashga; daromadlarning prognozini oshirib bajarishdan olingan mablag'larning bir qismini tumanlar va shaharlar budgetlariga hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun berishga haqli.

Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari tumanlar hamda shaharlarda mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalariga:

ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlar bo'yicha Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o'sib boruvchi koeffitsiyentlarni joriy etishga;

ko'chmas mulk ijara bozorida shakllangan haqiqiy ijara narxlaridan kelib chiqib, 2,0 baravarigacha oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo'llashga haqli.

Xalq deputatlari viloyat Kengashi tuman va shaharlar budgetlariga to'liq birlashtirilgan daromadlarni viloyatning viloyat budgetiga yo'naltirishi taqiqlanadi (bunda, daromadlari xarajatlaridan yuqori bo'lgan shahar va tumanlar mustasno).

Agar qonunchilikda daromadlarning budget darajalari bo'yicha taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo'lsa:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga o'tkazilishi lozim bo'lgan daromadlarning turlari respublika budgetiga o'tkaziladi;

mahalliy budgetlarga o'tkazilishi lozim bo'lgan daromadlarning turlari tegishincha viloyatning viloyat budgetiga o'tkaziladi.

Byudjet tizimi budgetlariga ortiqcha yoki noto'g'ri to'langan tushumlarning summalarini qaytarish, ularni qaytarish sanasida amalga bo'lgan ajratmalar normativlariga muvofiq tegishli budget tizimi budgetlaridan, bekor qilingan daromad turlari bo'yicha esa respublika budgetidan amalga oshiriladi.

Davlat korxonalarini hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (shu jumladan, ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan) 2025-yilning 1-iyuligacha qadar 2024-yil yakunlari bo'yicha o'z sof foydasining 50 foizi miqdorida ajratmalar va davlat ulushi bo'yicha dividendlar hisoblanadi ham-

da 2025-yilning 1-sentabridan kechiktirmay tegishli darajadagi budgetlarga o'tkaziladi. Shuningdek, ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo'lgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar 2024- va 2025-yillardagi davlat ulushi bo'yicha sof foydasining 100 foizini O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetiga dividendlar tarzida o'tkazadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo'lgan oltin va mis qazib oluvchi korxonalar uchun dividendlar to'lash miqdori va davriyligini qonunchilikda belgilangan tartibda aniqlashga haqliligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinсин.

4. Quyidagilar: Samarqand viloyatini 2025-yilda rivojlantirishning makroiqtisodiy prognoz ko'rsatkichlari **1-ilovaga**;

Samarqand viloyatining viloyat mahalliy budgeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko'rsatkichlari **2-ilovaga**;

Samarqand viloyatining viloyat budgetidan 2025-yilda hududiy budget mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **3-ilovaga**;

viloyat, tumanlar va shaharlar mahalliy budgetlariga umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar, shuningdek, soliq bo'lmagan to'lovlar bo'yicha belgilanadigan normativlari **4-ilovaga**;

Bunda, *ajratma meyorlari bo'yicha viloyat mahalliy budgeti bilan tuman va shaharlar mahalliy budgetlarining taqsimotini o'rnatilgan tartibda "Davlat moliyasini boshqarish" axborot tizimiga Samarqand viloyati g'aznachilik xizmati boshqarmasi tomonidan kiritilishi belgilab qo'yilsin.*

viloyat budgetidan tuman va shahar mahalliy budgetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi budgetlararo transfertlar miqdorlari **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. Shahar va tumanlar mahalliy budgetlarining 2025-yil daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmi **6-ilovaga** muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinсин.

6. Viloyatning viloyat budgeti shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budget mablag'larining 2025-yilda yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori **18 984,0 million so'm** etib hamda tumanlar va shaharlar budgetlari shaxsiy g'azna hisobvaraqlarida turgan budget mablag'larining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdori **7-ilovaga** muvofiq belgilansin.

7. Viloyatning viloyat budgeti zaxira jamg'armasi hajmi 2025-yil uchun **38,2 milliard so'm** miqdorida belgilansin. Bunda:

shaharlar va tumanlar mahalliy budgetlarining 2025-yil uchun zaxira jamg'armalari tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag'lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin;

viloyat, tuman va shaharlar budgetlarining zaxira jamg'armalari mablag'larini amaldagi Byudjet kodeksining 73-moddasiga muvofiq, budget tizimi budgetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo'lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta'minlansin.

8. Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo'yicha mutlaq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasi qiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **8-ilovaga**, jismoniy shaxslar bo'yicha (dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m² uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar **9-ilovaga** hamda ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlarning 1 m² uchun mutlaq

miqdorda belgilangan minimal qiymatga nisbatan kiritilayotgan koeffitsiyentlar **10-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

9. Viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari (F.Abilov), viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (B. Mirzayev), viloyat soliq boshqarmasi (E. Tolliyev) tuman (shahar) hokimliklari bilan birgalikda 2025-yil mahalliy budgeti uchun belgilangan ko'rsatkichlarni o'z vaqtida va samarali bajarilishini ta'minlash choralari ko'rsin.

10. Barcha tuman va shahar hokimliklari, mas'ul boshqarma va tashkilotlar

2025-yil uchun ajratilayotgan budget mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish, budget intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish, tegishli mahalliy budgetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash hamda budget daromadlar bazasini oshirish va qo'shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratilsin.

11. Viloyat soliq boshqarmasi (E.Tolliyev) hududiy soliq organlari bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlardan kelib chiqib:

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida budgetga undirilishi ustidan soliq nazoratini o'rnatish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanilgan uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazgan holda soliqlarning to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliq to'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish; aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks etirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

yer va mol-mulk solig'ining soliq bazasini oshirish, ya'ni xatlov ishlarini samarali va muntazam tashkil etib borish vazifalari yuklatilsin.

12. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi Samarqand viloyati boshqarmasi (S.Jabborov), viloyat soliq boshqarmasi (E.Tolliyev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budgetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borsinlar hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha kompleks chora-tadbirlarni ko'rish vazifasi yuklatilsin.

13. Davlat aktivlarini boshqarish agentligining viloyat hududiy boshqarmasi (A.Egamov)ga bo'sh turgan obyektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining viloyat hududiy boshqarmasi (A.Yangiboyev) bilan birgalikda:

bo'sh turgan davlat mulki obyektlarini aniqlash bo'yicha doimiy ravishda xatlov ishlarini tashkil etish; xatlov natijalariga ko'ra viloyatda mavjud bo'sh turgan davlat mulki obyektlari ro'yxatini shakllantirish, ijaraga berish yoki sotish bo'yicha tegishli takliflar tayyorlash vazifasi yuklatilsin.

14. "Zarafshon" irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi (F.Rajabov) va viloyat soliq boshqarmasi (E.Tolliyev) tuman va shahar hokimlari bilan birgalikda viloyatda sug'orishga sarflanayotgan suv hajmlari bo'yicha aniq hisob-kitoblarni yuritgan holda mazkur iste'mol hajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanilgan uchun soliqlarning to'liq hisoblanishini hamda moliya yili yakuniga qadar mahalliy budgetlarga to'liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

Bunda, qishloq xo'jaligi korxonalarini tomonidan iste'mol qilinayotgan suv resurslari hajmlari va ushbu hajmlar bo'yicha hisoblanayotgan suv soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazishga alohida e'tibor qaratilsin.

15. Viloyat soliq boshqarmasi (E.Tolliyev), viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi (B.Tugalov) tuman (shahar) hokimlarining birinchi o'rinbosarlari bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 709-sonli qaroriga asosan, qishloq

xo'jaligi yerlarini ijaraga berishda hisoblangan ijara va qo'shimcha to'lov summalarini belgilangan grafiklarga muvofiq mahalliy budgetlarga undirish choralari ko'rsinlar.

16. Xalq deputatlari hududiy Kengashlar hamda tuman (shahar) hokimlari O'zbekiston Respublikasining Budget kodeksining 27- va 28-moddalarida belgilangan budget sohasidagi vakolatlaridan kelib chiqib, budgetga va davlat maqsadli jamg'armalariga tushumlar to'liq va o'z vaqtida tushishi hamda budget mablag'larining maqsadli sarflanishi ustidan nazorat o'rnatilsin.

17. Hududiy budget mablag'larini taqsimlovchilar har yili 25-yanvar kuniga qadar budget mablag'larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan yillik faoliyati to'g'risida mahalliy Kengashlarga hisobot berib borsin.

Bunda, hududiy budget mablag'larini taqsimlovchilar:

o'z tasarrufidagi tizimda budget intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilish;

o'zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlari smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlari smetalarining to'g'ri tuzilishi;

budgetdan ajratilgan mablag'larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to'liq bajarilishi;

tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budgetdan ajratiladigan mablag'larning to'g'ri taqsimlanishi;

budgetdan ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan, ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarning to'liq rejalashtirilishi va o'z vaqtida to'lanishini;

budget jarayonining ochiqligini ta'minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma'lumotlar joylashtirib borilishini ta'minlansinlar.

18. Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqini himoya qilish viloyat hududiy boshqarmasi (B.Toyirov) tuman va shaharlar hokimliklari bilan birgalikda tashqi reklama obyektlarini to'liq xatlovdan o'tkazgan holda ushbu tashqi reklama obyektlari bo'yicha shartnomalar tuzish choralari ko'rsin hamda ushbu shartnomalar bo'yicha yig'imlarni budgetga to'lanishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilsin.

19. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentining Davlat moliyaviy nazorat inspeksiyasi viloyat boshqarmasi (Sh.Boboqulov) budgetdan ajratilgan mablag'larni maqsadli ishlatilishini nazorat qilish va amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan har chorakda xalq deputatlari viloyat Kengashi sessiyalarida axborot berib borish vazifalari yuklatilsin.

20. Viloyat hokimligi axborot xizmati - matbuot kotibi (M.Mirzayev), viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (M.Ibodullayev), viloyat soliq boshqarmasi (E.Tolliyev), viloyat iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (B.Mirzayev) bilan birgalikda viloyat teleradiokompaniyasi hamda viloyatdagi boshqa ommaviy axborot vositalarida, hokimlik muassisligidagi gazetalarda qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to'lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma'lumotlarni e'lon qilinishi hamda hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtirilishini tashkil etsin.

21. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

22. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy budget, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (M.Po'latov) hamda viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (F.Abilov) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi Sh.NEGMATOV

2024-yil 26-dekabr

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrda 130-sonli qaroriga asosan			
2025-yil uchun viloyat budgeti, tumanlar va shaharlar mahalliy budgetlarining umumiy xarajatlarining prognozi			
miqdor			
Ta	Hisob nomi	Daromad	Xarajat
1	Ajami	3 447 000 000,0	3 147 000 000,0
2	Samarqand shahri	318 770 000,0	318 770 000,0
3	Kattakurgan shahri	93 200 000,0	93 200 000,0
4	Oqoyul shahri	138 940 000,0	138 940 000,0
5	Behang'ul shahri	138 747 000,0	138 747 000,0
6	Shibdan shahri	130 724 000,0	130 724 000,0
7	Behang'ul shahri	148 722 000,0	148 722 000,0
8	Kattakurgan shahri	148 187 000,0	148 187 000,0
9	Qir'atlar shahri	91 529 000,0	91 529 000,0
10	Shibdan shahri	132 820 000,0	147 817 000,0
11	Peypay shahri	144 437 000,0	142 708 000,0
12	Peypay shahri	206 324 000,0	206 324 000,0
13	Peypay shahri	132 849 000,0	131 129 000,0
14	Samarqand shahri	142 932 000,0	142 932 000,0
15	Shibdan shahri	133 239 000,0	133 239 000,0
16	Ug'ay shahri	206 381 000,0	206 381 000,0
17	Tuybog' shahri	134 289 000,0	134 289 000,0

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrda 130-sonli qaroriga asosan			
2025-yil uchun viloyat budgeti, tumanlar va shaharlar mahalliy budgetlarining umumiy xarajatlarining prognozi			
miqdor			
Ta	Hisob nomi	Daromad	Xarajat
1	Viloyat budgeti	40 800 000,0	40 800 000,0
2	Samarqand shahri	3 179 000,0	3 179 000,0
3	Kattakurgan shahri	840 000,0	840 000,0
4	Oqoyul shahri	966 000,0	966 000,0
5	Behang'ul shahri	966 000,0	966 000,0
6	Shibdan shahri	944 000,0	944 000,0
7	Behang'ul shahri	3 172 000,0	3 172 000,0
8	Qir'atlar shahri	3 172 000,0	3 172 000,0
9	Shibdan shahri	3 172 000,0	3 172 000,0
10	Peypay shahri	3 172 000,0	3 172 000,0
11	Shibdan shahri	3 172 000,0	3 172 000,0
12	Peypay shahri	3 172 000,0	3 172 000,0
13	Peypay shahri	3 172 000,0	3 172 000,0
14	Samarqand shahri	3 172 000,0	3 172 000,0
15	Shibdan shahri	3 172 000,0	3 172 000,0
16	Ug'ay shahri	3 172 000,0	3 172 000,0
17	Tuybog' shahri	3 172 000,0	3 172 000,0

Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining 2024-yil 26-dekabrda 130-sonli qaroriga asosan			
2025-yil uchun viloyat budgeti, tumanlar va shaharlar mahalliy budgetlarining umumiy xarajatlarining prognozi			
miqdor			
Ta	Hisob nomi	Daromad	Xarajat
1	Samarqand shahri	1,00	10 000,0
2	Kattakurgan shahri	1,22	10 000,0
3	Oqoyul shahri	0,79	10 000,0
4	Behang'ul shahri	0,79	10 000,0
5	Shibdan shahri	0,79	10 000,0
6	Behang'ul shahri	0,81	11 400,0
7	Kattakurgan shahri	0,81	11 400,0
8	Qir'atlar shahri	0,81	10 000,0
9	Shibdan shahri	0,79	10 000,0
10	Peypay shahri	0,79	10 000,0
11	Peypay shahri	0,81	10 000,0
12	Peypay shahri	0,81	10 000,0
13	Samarqand shahri	0,81	10 000,0
14	Shibdan shahri	0,81	10 000,0
15	Ug'ay shahri	0,80	10 000,0
16	Tuybog' shahri	0,80	10 000,0

Mazkur qarorning ilovalari bilan ushbu QR-kod orqali Zarnews.uz kanalida tanishishingiz mumkin.





Faoliyat raqamlarda



YOSHLAR TURIZMI

haftaligi boshlandi

Viloyatdagi o'quvchi va talabalar-ning qishki ta'tildagi bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish maqsadida 4-yanvardan boshlab turizm haftaligi doirasida muzeylar va tarixiy obidalariga sayohatlar tashkil etilishi belgilandi. Sayohatlarga viloyatning barcha tuman va shaharlaridan, asosan nogironligi bo'lgan, ijtimoiy daftarlarda ro'yxatda turgan, fan olimpiadalarida g'oliblikni qo'lga kiritgan yigit-qizlardan iborat 850 nafar yosh taklif etiladi.



- Haftalikning ilk kunida Samarqand shahrida yashovchi bir guruh yoshlar sayohatga chiqadi, - deydi viloyat hokimi o'rinbosari Rustam Qobilov. - Ular dastlab Registon maydonida bo'ldi. Yoshlarga bu yerdagi madrasalar, ularning qurilish tarixi haqida so'zlab beriladi. Shundan so'ng yosh sayyohlar

Mirzo Ulug'bek rasadxonasi va shahardagi boshqa tarixiy obidalarini ziyorat qildi. Buyuk Ipak yo'li xalqaro turizm markazida joylashgan "Boqiy shahar" majmuasini ham ko'zdan kechirdi. Har 15 nafar yoshga bir nafar o'qituvchi yo'lbo'shchilik qilyapti. Ularning salomatligi va xavfsizligini ta'minlash

maqsadida ichki ishlar bo'limlari va tibbiyot xodimlari ham mas'ul qilib birkirilgan.

Haftalik 10-yanvarga qadar davom etadi. Yosh sayohatchilar uchun teatr va kinoteatrlarda tarixiy spektakllar va badiiy filmlar namoyish etilishi ham rejalashtirilgan.

To'liq SIDDIQOV.

HOKIM

YORDAMCHILARI

nima bilan shug'ullanyapti?

VILOYAT KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK BOSH BOSHQARMASIDAN OLINGAN MA'LUMOTGA KO'RA, 2024-YILDA HOKIM YORDAMCHILARI SA'Y-HARAKATI BILAN 421 MING 628 NAFAR AHOLINING BANDLIGI TA'MINLANGAN. SHUNDAN, 203397 NAFAR AHOLI O'ZINI O'ZI BAND QILGAN, 213742 NAFAR DOIMIIY VA MAVSUMIY ISHGA, 4489 NAFAR HAQ TO'LANADIGAN JAMOAT ISHLARIGA JOYLASHTIRILGAN VA 3930 NAFAR HUNARMANDCHILIKKA JALB ETILGAN. 13190 NAFAR FUQARONI YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKOR SIFATIDA RO'YXATDAN O'TKAZISH VA 19974 NAFARIGA YER MAYDONI AJRATISH ORQALI BANDLIGI TA'MINLANGAN.

Har bir mahallada 30 tadan mikroloyiha ishga tushirish vazifasi belgilangan bo'lib, hokim yordamchilari tomonidan "Online-mahalla" platformasiga 33898 ta mikroloyiha kiritilgan. Shundan 31787 ta mikroloyiha ishga tushirilishi natijasida 2,1 trilyon so'm mablag' o'zlashtirilgan, 50302 nafar ishsiz fuqaroning

bandligi ta'minlangan.

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan 4882 nafar fuqaroga 29,3 milliard so'm subsidiya berilgan. Oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 31,2 mingdan ortiq jismoniy va yuridik shaxslarga 510 milliard so'm imtiyozli kredit ajratilgan.




Tashabbus



Qo'shrabot tumanidagi Chorloq mahallasi Achchabuloq qishlog'i yoshlari o'z mablag'lari hisobidan hashar yo'li bilan Achchabuloq va Xonnazar mahallasi o'rtasidagi soyga temir-beton ko'priq qurishdi. Ularning xayrli ishi tufayli yog'in-sochin kunlarida yomg'ir-sel suvlari tufayli yuzaga keladigan noqulaylikdan aziyat chekadigan aholi qiynalmasdan manzili-ga yetadigan bo'ldi.

Teshaboy BOBOQULOV,
Qo'shrabot tumani, mehnat faxriysi.



HUQUQIY MASLAHAT

SHAXSIY

ma'lumotlarimni blogerga beribdi...

— Tashkilotimizning kadrlar bo'limi xodimi bir blogerga yashash joyim va oila a'zolarim haqidagi ma'lumotlarni beribdi. Bu qonunga xilof emasmi?

— Shaxsga doir ma'lumotlar jumlasiga xodimning familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan sana-si va joyidan tortib, uning oila a'zolari va ularning hayotidagi ish beruvchiga ma'lum bo'lib qolgan faktlar, voqealar hamda holatlar haqidagi boshqa ma'lumotlar kiradi. Xodimning shaxsga doir ma'lumotlari to'g'risidagi axborot maxfiy axborot toifasiga taalluqlidir.

Mehnat kodeksining 178-moddasiga muvofiq, xodimlarning shaxsga doir ma'lumotlarini saqlash, ulardan foydalanish va ularni berish ushbu kodeks hamda boshqa qonunlar talablariga rioya etgan holda ish beruvchi tomonidan belgilanadi. E'tiborsizlik, ish beruvchi bunday ma'lumotlarni uchinchi shaxsga berishda xodimning yozma roziligini olishi kerak. Faqat bundan xodimning hayoti va sog'lig'iga bo'lgan tahdidning oldini olish maqsadida, shuningdek, ushbu kodeksda va boshqa qonunlarda nazarda tutilgan boshqa hollarda xabar qilish zarur bo'lgan hollar mustasno.

Yuqoridagi holatda siz shaxsga doir ma'lumotlaringiz himoya qilinishini ta'minlashga doir bir qator huquqlarga egasiz. Yanzur kodeksning 179-moddasiga asosan, o'zining shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish va ularni himoya qilish chog'ida ish beruvchining barcha g'ayriqonuniy qarorlari, harakatlari (harakatsizligi) ustidan shikoyat qilish, shu jumladan, sudga ham shikoyat qilish mumkin.

Savollarga Samarqand shahar adliya bo'limi Davlat xizmatlari markazi xodimi Mansur HAYITOV javob berdi.

Vaqtida tibbiy ko'rikdan o'tganlarga

BEPUL TIBBIY XIZMATDAN FOYDALANADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-sentabrdagi "Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida aholiga bepul tibbiy xizmat ko'rsatish mexanizmlari bilan bog'liq jarayonlar belgilab berilgan.

Qarorga ko'ra, davlat tibbiy sug'urtasi doirasida tibbiy xizmatlar ko'rsatish va dori vositalarini taqdim etish davlat budjetiga to'lanayotgan soliqlar hisobidan amalga oshiriladi. Bunda aholidan davlat tibbiy sug'urtasi uchun qo'shimcha to'lov talab qilinmaydi. Davlat budjeti mablag'lari hisobidan qoplanadigan tibbiy yordamning belgilangan hajmlari – kafolatlangan paket tasdiqlanadi va ushbu paketga kiritilgan tibbiy xizmatlar va dori vositalari Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi mablag'lari hisobidan taqdim etiladi. 2025-yildan boshlab kafolatlangan paketga kiritilgan tibbiy xizmatlardan bepul foydalanish uchun belgilangan muddatlarda tegishli tibbiy ko'riklardan o'tish, oilaviy shifokorga yoki tibbiy-

ot brigadasiga murojaat qilish talab etiladi.

O'z o'rnida oilaviy shifokor aholini belgilangan tartibda qabul qilib, davolash va tashxislash standartlariga muvofiq, tor soha shifokorlariga, zarur hollarda shifoxonalarga elektron yo'llanma beradi. Ushbu tartibga rioya etilmagan hollarda ularga tibbiy xizmatlar pulli asosida ko'rsatiladi. Shifokor tomonidan bemorga kafolatlangan paket doirasida bepul dori elektron retsept orqali dorixonalardan beriladi. Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatuvchi tashkilot va unga birkirilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasining soliq rezidenti deb e'tirof etilgan chet el fuqarolari, shuningdek, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar o'rtasida bitim tuziladi.



Bitimda aholiga sog'lom turmush tarziga rioya etish, zararli odatlardan voz kechish, o'z tibbiy savodxonligini oshirish, shifokor ko'rsatmalariga amal qilish, profilaktik va skrining ko'riklardan belgilangan muddatlarda o'tish kabi majburiyatlar yuklatiladi. Oilaviy shifokorga aholini belgilangan tartibda qabul qilish va

maslahat yoki yo'llanma berish, tibbiy xizmatlarni o'z vaqtida sifatli va to'liq hajmda ko'rsatish, dori vositalarini to'g'ri tayinlash kabi majburiyatlar yuklatiladi.

Marg'uba ZARIPOVA,
Samarqand shahar 14-oilaviy poliklinika bosh shifokori o'rinbosari.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tekzor, samarali va hamyonbop / MUHOJAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Oqdaryo tuman davlat xizmatlari markazidan 2018-yil 11-mayda 607809 reestr raqami bilan ro'yxatga olingan "NAVOLI AGRO FRUITS" fermer xo'jaligi (qisqartirilgan nomi: "NAVOLI AGRO FRUITS" FX) bankrot holatiga tushib qolganligi sababli tugatilmogda.

Shu munosabat bilan unga bildiriladigan barcha e'tirozlar gazetada e'lon chop etilgach, ikki oy davomida qabul qilinadi. Fermer xo'jaligining pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi Samarqand viloyati Oqdaryo tumani, Mirzo Ulug'bek nomli MTP hududi.

Fermer xo'jaligining soliq to'laydigan identifikatsion raqami (STIR): 305542080.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatilayevna notarial

idorasida marhum Xamdov Ilxom Xakimovichga (2024-yil 23-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatilayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Begisheva Kadriya Nurdinovnaga (2021-yil 25-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 158-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasida marhum Abdullayev Baxrilloq (2024-yil 2-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirova Mavluda Turanboyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Farhod ko'chasi, 34-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasida marhum Baratov Bobur Raxmatovichga (2021-yil 22-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gulobod ko'chasi, 5-uy.

BEKOR QILINADI

Sotuvchi "DALER DEVELOPMENT" MCHJ nomidan rahbar Sadikova Surayo Raximovna va sotib oluvchi Fattoyev Sherzod Abdusamadovichlar o'rtasida Samarqand shahri "Nafosat" MFY, Buyuk Ipak yo'li ko'chasi 10-uy, 19-sonli kvartira uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Rahmonov Sarvar Ne'matillovich notarial idorasidan 2024-yil 29-yanvarda tasdiqlanib, Ksh 146381 SA blankada tuzilgan, 202401390000698 raqam bilan reestrda kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

KO'ZGA KO'RINMAS XALOSKORLARIMIZ

Ularni taniysizmi?

Har gal shu jurnalni ko'rsam, allaqanday xaloskorni ko'rganday quvonaman va albatta unda yangi ma'naviy durdonalar yig'ilganiga ishonib, o'qishga kirishaman. Birini o'qib tugatganimdan so'ng, navbatdagi sahifadagi maqolani keyingi kun uchun asragim keladi. Keyingi kun yana bitta ma'naviy ozig'im borligiga ishonchim komil bo'lish kishiga huzur bag'ishlaydi.


"Tafakkur" - bugun juda kam nuxxada tarqalayotgan bo'lsa-da, bir necha yil ilgari darajasini yo'qotmay kelayotgan jurnallardan biri. Ko'plab nashrlarning o'quvchi saviyasi, istagiga qarab ish ko'rmasak bo'lmaydi, deya yengil-yelpi maqolayu ko'rsatuvlarga o'tib ketayotgan bir paytda "Tafakkur", "Ma'naviy hayot" singari jurnallar pinagini buzmay. Davrning bor sinovlariga ko'ksini tutdi. Saviya o'zgaradi, mualliflarini yo'qotmadi, saralashdan erinmadi. Bunday qahramonlik oddiy bir o'quvchi, qolaversa bir necha o'n yillik jurnalist sifatida qanchalik murakkab ekanligini angliyanman. Anglaganim holda ushbu jurnallar va ularda mehnat qilayotgan odamlar oddiy odam emas, mam-lakatimizning ma'naviy ustunlari, ko'zga ko'rinmas xaloskorlarimiz, deyman.

"Tafakkur", "Ma'naviy hayot", "Jahon adabiyoti" kabi jurnallar bugun kun ziyolilari uchun asosiy suhbat mavzularining bosh omili bo'lmog'i dorkor, deb hisoblayman. Lekin ushbu jurnallar nuxsasi va bugungi kun ziyolilarining ba'zilar bilan suhbatlar ular hamon yetarlicha o'qilmayotganidan darak beradi.

DOD DEYISHGA MAJBURMIZ!

Yaqinda yirik bir tadbir sabab yuzlab ziyolilarning tarjimai holini o'qishimga to'g'ri keldi. Ushbu tarjimai hol egalari turli korxonay, fabrikalar xodimi bo'lsa mayli edi, bu masalaga ahamiyat ham bermasdik, ammo ularning aksariyati ta'lim sohasi kishilari edi. To'rt qator ma'lumotda xatoliklar va ularga nisbatan e'tiborsizlik shunchalik ediki, hatto qabul qilayotgan kishilar ham bunga befarq munosabatda bo'lgan. Og'ringanimiz sababi shunda edi. Ushbu ma'lumotlar egalarning qo'lidan o'tmagan ham deylik, lekin har holda uni tayyorlab jo'natayotgan oliy ta'lim tizimida, maktab ta'limi sohasida mehnat qilayotgan insonlarku!

Gap faqat o'sha tarjimai hollardagi to'rtta ma'lumotda emas, balki bir jamiyatning shunga munosaba-



ti, savodsizlarcha yozilgan matnini o'qib turib ham "Nima bo'пти?" deganday qarashi haqida ketyapti. Bu munosabatning o'ziyoq "SOS" degan chaqiriqqa sabab bo'ladi, nazariyda. Savodxonlikka, o'zbek tilida to'g'ri talaffuz, to'g'ri yozishga nisbatan yordam qanchalik muhimligini angladim.

Lekin gazeta, jurnal o'qimay bu kabi savodsizlikni tugatib bo'lmaydi, menimcha.

VAQT EMAS, ISHTIYOQ YO'Q

U yoki bu davrlarda gazeta, jurnal o'qish bo'yicha ziyolilarning fikrlarini doim so'rab boraman. Aksariyati, bugun ularga qo'yilayotgan yuklamalar juda katta ekanligini, gazeta varaqlashga umuman vaqti yo'qligini aytadi. Kun davomida amalga oshirayotgan ishlarini ham alohida ta'kidlab o'tishadi. Lekin ularga e'tiroz bildirgim ke-laveradi.

Ayniqsa, oliy ta'lim, umumta'lim maktab, o'qituvchilarining gazeta-jurnal o'qimasiqligini tushuna olmayman. Ularning ishi ko'pligi bilan bog'liq sabablariga ham qo'shilolmayman. Sababi, dad-am shu yaqin yillarda oliy ta'lim tizimida ishlagan. Ishini ham doim vaqtda bajarib, gazeta, jurnal o'qishni umrining oxirigacha kanda qilmadilar. Respublika, viloyat nashrlarini albatta o'qib chiqardi-

lar. Qizig'i, gazeta, jurnallarning birortasini tashlab yubormas, yana bir gazetxon amakim qishloqdan kelib, ularni olib ketar va albatta undagi maqolalar bilan tanishib chiqardilar. "Hamma gazeta, jurnalga obuna bo'lolmaymiz, lekin o'qigimiz keladi, shuning uchun eski sonlarini bo'lsa ham uyga olib borib o'qiyamiz, qizim. Ularda bugun jamiyatda bo'layotgan voqea-hodisalar, yangiliklar hammasi berib boriladi. Yangiliklardan boxabar bo'lib borganim uchun garchi pensiyada, uyda o'tirsam ham ko'pchilik mahalladoshlar mendan kelib maslahat so'rashadi. Gazeta o'qiganim uchun bilimamda ularga nima deysinmi", deya maqtanib ham qo'yardilar. Bu uzoq o'tmishdagi emas, yaqin 2020-yillardagi gap.

Aytmoqchimanki, inson istasa kundalik nashrlarni kuzatib borishga albatta vaqt, imkon topadi.

JURNALXONLIK SOATI BO'LSIN

Ma'naviyat va ta'lim tashkilotlarida rahbarning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari lavozimi tashkil etilishi bejiz emas. Bugun turli festivallaru, tadbirlar o'tkazilishi va ularga ma'naviyat tashkilotlarining bosh bo'lishi yaxshi. Lekin nazariyda, ma'naviyat tashkilotlarining birinchi galdagi vazifasi o'z tashkilotidagi xodimlari, yoshlarni kitob, gazeta-jurnalga oshno qilish, deb o'ylayman. "Ma'naviyat soati"ga kimni taklif qilamiz, deya turli soha vakillarini ma'ruza o'qitish ham shart emas, aslida. Kitobxonlik soati gazetxonlik soati, jurnalxonlik soati uyushtirish shart va ushbu soatliklarda ma'lum gazeta, jurnallardagi maqolalar mazmunidan yig'ilganlar xabardor bo'lishi kerak.

Minglab o'quvchilar yoki ta'lim muassasasidagi xodimning xalqiy qarashlari, odobiyu tashqi ko'rinishini bittagina ma'naviyat xodimi o'nglab berolmaydi. Ammo bu masalada ijobiy natijaga erishishda ularni kitobxonlik va gazetxonlikka undash, maqola o'qitish va uni sharhlab berishga, o'z fikrini bildirishga imkon yaratish albatta ularning dunyoqarashini o'zgartirishga asos bo'ladi.

Umuman, bu bittagina fikr. Vaholanki, har bir gazeta-jurnal o'qishni odat tusiga kiritish uchun avvalo, o'sha tashkilot rahbari ham buning mohiyatini tushunib yetishi muhim ahamiyatga ega. Axir ma'naviy ustunlarimiz "Tafakkur"day jurnalimiz borligini bilmaydiganlari qancha...

Gulruh MO'MINOVA.

Viloyatdagi 1607 ta moddiy madaniy meros obyektining 483 tasi Samarqand shahrida joylashgan.

Ma'lumotlarga ko'ra, shahardagi yodgorliklarning 363 tasi qoniqarli, 77 tasi qoniqarsiz, 31 tasi avariya holatida turibdi. Ta'mirtalab obyektlarning 19 tasi xususiy mulk sifatida ro'yxatga olingan.

Keyingi yillarda Samarqand shahridagi diqqatga sazovor maskanlar - Registon, Shohi Zinda, Bibixonim, Xon Said Imom, Dari Zanjir, Mirvafoboy uyi, Ashratxona, Saroy Mulk Xonim, Oq Saroy, Mahdumi Xorazmiy hamda Qozi G'ofur madaniy meros obyektlarida ta'mirlash-tiklash ishlari olib borilib, yo'qolib ketish xavfi ostida turgan inshootlar muhofazaga olindi, - deydi viloyat madaniy meros boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Ziyodulla Nasimov. - Buning uchun 6 milliard so'm

mablag' sarflandi. Shuningdek, madaniy meros obyektlarining saqlanishi, ta'mirlanishi, tiklanishi va muhofaza qilinishi yuzasidan o'rganish ishlari olib borilib, shahardagi XIX-XX asrlarga oid to'rtta arxitektura inshootini madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatidan chiqarish uchun xat yuborildi.

Avariya holatida turgan madaniy meros obyektlariga kelsak, kelgusi yillarda davlat dasturi asosida hamda Vazirlar Mahkamasining Moddiy madaniy meros obyektlarini va ularga tutash hududlarni obodonlashtirish va zarur holda saqlash bo'yicha investitsiya majburiyatlarini olgan holda ijara berish tartibi to'g'risidagi nizomi talablari asosida davlat mulki obyektlarini ijara berish hamda investitsiya kiritish orqali yodgorliklarni ta'mirlash rejalashtirilgan.

F.RO'ZIBOYEV.

TUMANDA 150 TA ARXELOGIYA VA ARXITEKTURA OBYEKTI RO'YXATGA OLINGAN. OBYEKTLARNING AKSARIYATI TEPALIKLARDAN IBO-RAT BO'LIB, MILODDAN AVVALGI I ASRDAN XVIII ASRGACHA DAVR-LASHTIRILGAN. BIROQ KO'PLAB TEPALIKLARGA NOM BERILMAGAN, BA'ZILARINING DAVRI HAM ANIQ EMAS, SHUNINGDEK, HUDUDDA ANIQLANGAN YANGI TOPILMALAR, ARXELOGIYA OBYEKTлари MADANIY MEROS RO'YXATIGA KIRITILMAGAN.



Past Darg'omdagi Nomsiztepadan antik davrga tegishli sug'diylar tangasi va sopol buyumlar topildi

Hozirda arxeologiya objekti muhofazaga muhtoj

- Tumanda 150 ta madaniy meros objekti ro'yxatga olingan, lekin bu to'g'ri emas, - deydi tarixchi Sharifjon Saxatov. - 2014-yilda Samarqand arxeologiya instituti olimlari va Italiya arxeologlari Past Darg'omdagi barcha tepaliklarning joylashuvi, o'rni va tarixini kartaga kiritib, ularga nom berishgan. Ushbu ro'yxatga ko'ra, tumanimizda 300 dan ortiq tepalik mavjud. Misol uchun, Xonchorbog' mahallasida Abdulloh Xoja ibn Darvesh dafn etilgan va qadimiy sag'ana, uning qabrtoshi yoki Qayrag'och qishlog'ida dafn etilgan Xoja Kalon qabrtoshi va qadimiy qabriston ro'yxatga olinmagan. Bundan ko'rinadiki, hududdagi madaniy meros obyektlarini yana xatlovdan o'tkazib, qaytadan ro'yxatga olish kerak.

TEPALIKLARGA MUHOFAZA BELGILARI O'RNATILMAGAN

Tumanning Paxtakor mahallasida beshta tepalik bor. Tarixchi Sharifjon Saxatov va shu tumanda yashovchi Akmal Hamrayev mahalladagi nomsiz-tepa (xalq tilida Qo'rg'ontepa)ning tarixini o'rganish davomida antik davrga oid so'g'diylar tangasi, sopol idishlar qoldiqlarini topishgan. Ma'lum bo'lishicha, tepalik antik davrga, ya'ni miloddan avvalgi IV-VI asrlarga tegishli bo'lib, qadimda bu joy shahar bo'lgan. - Tepalikda dastlabki o'rganish natijasida antik davr bilan bog'liq topilmalar aniqlandi, - deydi Akmal Hamrayev. - Hudud qariyb 25 gektarni egallagan



bo'lib, madaniy meros obyektlari ro'yxatga kiritilgan, biroq muhofaza belgilari o'rnatilmagan. Shu bois aholi tomonidan tepalikda qimmatbaho buyumlarni izlash maqsadida qazishmalar olib borish, chorva mollarning boqilishi va shaxsiy ehtiyoj uchun foydalanish holatlari uchramoqda. Yodgorlikda arxeolog va mutaxassislar tadqiqot olib borsa, nafaqat antik, balki bronza va boshqa davrlarga oid topilma hamda qimmatli ma'lumotlarni topish mumkin.

Viloyat madaniy meros boshqarmasidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, tumanda ro'yxatga olingan 147 ta arxeologiya va 3 ta arxitektura madaniy meros obyektining barchasi qoniqarsiz holatda. Nahotki, o'tmishimiz, o'zligimiz aks etgan, ota-bobolarmizdan meros muqaddas qadamjo va tarixiy joylar hech kimga kerak emas. Madaniy meros agentligi mas'ullari sohadagi muammolarga e'tibor qaratadi, degan umiddamiz.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Kitob javoningizga

"Azizoni dil"

Toshkentdagi "Bio-faktor press" nashriyotida samarqandlik jurnalist Baxtiyori Jumaning shu nomdagi kitobi nashr qilindi. Kitobda muallifning ilmfan, san'at va madaniyat sohasida faoliyat ko'rsatgan kishilar hayoti va faoliyati bilan bog'liq xotiralari berilgan.

Kitobning mavzu ko'lami keng bo'lib, undan o'rin olgan maqolalar hayotiy voqealarga asoslangan. Ularda ishtirok etgan qahramonlar ham asosan ijod bilan shug'ullanuvchi kishilar. Maqolalar mazmuniga singdirilgan insoniylik, mehr-oqibat, kasbga sadoqat, jurnalistlik kasbining o'ziga xos xususiyatlari, ilm ahli salohiyati kabi masalalar o'quvchini befarq qoldirmaydi.

Yoshim ortgani sayin keksalar suhbatiga quloq tutadigan bo'lganman. Ayniqsa, yoshi ulug' kishilardan uzoq umr ko'rish sirlarini bilishga qiziqaman. Suhbatini olgan keksalarning uzoq umr ko'rish formulasi deyarli bir xil ekan. Keling, ularni siz bilan bo'lishaman.

UZOQ UMR KO'RAY DESANGIZ..

Uzoq umr ko'rish uchun birovning haqini yemaslik, yolg'on so'zlamaslik, g'iybat qilmaslik, ota-onani hurmat qilish, mevali daraxtlar o'tqazish kabi savobli amallar qilish lozim ekan.

"Mevali daraxtlarni yo'l chetiga o'tqazsa, ayni muddao bo'ladi. Chunki ko'chadan o'tganlar va qushlar ham undan bahramand bo'lib, daraxtni ekkanni duo qiladi", deydi keksa otaxonlardan biri Xolboy Nazarov.



Qolaversa, qo'shnilar bilan yaxshi muomalada bo'lish, qarindoshlar holidan xabar olish, odamlarning dilini og'rtimaslik, muhtojlarga yordam berib turish kabi xayrli ishlar ham kishining uzoq umr ko'rishiga sabab bo'lar ekan. Men keksalarning ushbu fikrlariga to'liq qo'shildim. Siz-chi?

Turdi TURSUNOV, mehnat faxriysi.

Samarqand shahridagi o'ndan ortiq madaniy meros obyekti ta'mirlandi

AMMO 30 DAN ZIYOD YODGORLIK AVARIYA HOLATIDA



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 136 nuxxada chop etildi. Buyurtma 1. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

D.TO'XTAYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

